

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ko'yxatga olindi:

№ 198

2022 yil 28.08



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QADOQLASH

Fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000 – Gumanitar soha 400000 – Qishloq va suv xo'jaligi
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika 410000 – Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	5410500 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi

Qarshi-2022

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

N.Qaxorova - "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi" kafedrasi dotsenti q.x.f.d (Phd)

Taqrizchilar:

1. QarMII "QXMS va DIT" kafedrasi kata o'qituvchisi F.Saydalov
2. QarMII "Kimyo" kafedrasi dotsenti. t.f.n.A.Ahmedov


Fanning ishchi o'quv dasturi "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi" kafedrasining 2022 yil "1" 26.08 dagi "1" - son yig'ilishida Sanoat texnologiyasi fakulteti Uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (bayon № 1 27.08 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida muhokama etilgan (bayon № 1 29.08 2022 y.) va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i:




Sh. Turdiyev

Fakultet kengashi raisi:



Hakimova M.H.

Kafedra mudiri:



Hakimova M.H.

I. O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI

Ushbu fanni bakalavrlar tayyorlashda o'rni va ahamiyati shulardan iboratki, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, saqlash va qayta ishlash bilan birgalikda ularni qadoqlash sohasi ham mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi o'ta muhim bosqichlardan biri bo'lib, sanaladi. Qadoqlashga nisbatan talablar keskin ortib ketganligi bugungi kunda mazkur yo'nalishni ilmiy asoslangan holda o'rganishni talab etadi.

Shu sababli fanni o'zlashtirish davomida talabalarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda qadoqlash jarayonini tashkil etish hamda qadoqlash materiallari, qayta ishlash, konservalash korxonalarini loyihalashtirish asoslari va texnologik jihozlari to'g'risida bilim berishni, qayta ishlash korxonalari va inshootlar, texnologik liniyalar va jihozlari, qadoqlash mashina va apparatlar haqida ma'lumot berish, ularni hisob-kitoblari bilan bog'liq bilimlarni o'rgatadi.

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda qadoqlash va qadoqlash materiallari” fani ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 4-kursga o'qitilishi maqsadga muvofiqdir. “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda qadoqlash va qadoqlash materiallari” fani ixtisoslik fanlar turkumiga kiradi va umumagronomik, iqtisodiy bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladi.

II. O'QUV FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallari va jihozlari bilan tanishtirish va ularni ishlash prinsiplarini o'rgatish.

Fanning vazifasi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni qadoqlash materiallarining turlarni ularni mahsulotlarga ta'siri, texnologik liniyalar va jihozlari, mashina va apparatlar haqida ma'lumot berish, ularni hisob-kitoblarini o'rganish.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Talaba:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini turiga qarab va uzoq muddatga saqlashga qo'yiladigan shartlar;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallari va jihozlari turlari, ularni qadoqlashda qo'llaniladigan materiallar va jihozlashda bajariladigan hisoblar va me'yoriy hujjatlar;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarining turlari va xususiyatlari;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlashda qo'llaniladigan jihozlarni tuzilishi va ishlash prinsiplari **haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;**
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarining me'yorlari, boshlang'ich ma'lumotlar va talablarni;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari jarayonida mahsulotlarni me'yorlash bo'yicha bajariladigan hisob-kitoblarni;
- texnologik jarayonlar bosqichlarini va har bir bosqichda bajariladigan ishlarni;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallari, mashina va apparatlarning turlarini hamda ularning tasniflanishi, tuzilishi, ishlash prinsipi va asosiy tavsiflarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlashni to‘g‘ri rejimlarda amalga oshira olishi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlashning zamonaviy usullarini tanlashi;
- qadoqlash sifatiga ko‘ra mahsulot partiyalarini shakllantira olishi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlarining tuzilishi va boshqarish tizimi yuzasidan *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda qadoqlash va qadoqlash materiallari” fanini talabalar 4-kursda o‘rganishadi.

Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar fizika va agrometerologiya, kimyo, botanika va o‘simliklar fiziologiyasi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari saqlash omborlari, qishloq xo‘jalik biotexnologiyasi va mikrobiologiya, fanlaridan yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan meva-uzum, poliz va sabzavot mahsulotlarini yig‘ishtirib olish, saqlash va aholini yil bo‘yi bu mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, mahsulotlarni eksport qilishda ushbu fan alohida ahamiyatga egadir.

Shuning uchun mahsulotlarni nes-nobud qilmasdan yuqori sifatli saqlash va qayta ishlash texnologiyalarini tashkil etish va mahsulot tannarxini kamaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Talabalarning “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda qadoqlash va qadoqlash materiallari” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishlash jarayoni va uskunolari aks ettirilgan yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalaniladi. Ma‘ruza, laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy darslarida mos ravishdagi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda qadoqlash va qadoqlash materiallari” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim. Bu ta‘lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta‘limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma‘lum bir ta‘lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta‘lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta‘lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta‘limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash logistikasi” fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Power Point”, “Excel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. nazokat1

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda qadoqlash va qadoqlash materiallari” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

Umumiy o'quv soati	90 soat
<i>Shu jumladan:</i>	
Jami auditoriya soatlari	48 soat
Ma'ruza	24 soat
Amaliy mashg'ulotlari	24 soat
Mustaqil ta'lim	42 soat

№	Mavzu, bo'lim nomi	Ma'ruza	Laboratoriya mashg'uloti	Mustaqil ish mavzulari
1.	Kirish. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash haqida umumiy ma'lumotlar Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallari va jihozlarining tarixi va bugungi kundagi ahamiyati, shu sohaga tegishli davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan so'nggi qonun va yangiliklar, loyihalashtirish institutining tuzilishi va faoliyatini o'rganish.	2	2	2
2.	Qishloq materiallarining turlari va ularning tuzilishi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarining turlari ularni markirovkalash tuzilishi, qadiqlangan mahsulotlarning saqlanish muddatiga, sifatiga, konsistensiyasiga qarab materiallarni tanlash va qo'llash tartibi va talablari.	2	2	4
3.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarining saqlanadigan mahsulotlar sifatiga ta'sirini va bartaraf etish usullarini o'rganish Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallari ishlab chiqarishda turli xil materiallardan tayyorlanadigan, qadoqlanadigan mahsulotlar turiga qarab turli xil idishlarda qadoqlanadi bu materiallar mahsulotlarga turlicha ta'siri va ularni me'yorlash hisoblashni o'rganish.	2	2	4
4.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlarining turlari Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash jihozlarini tanlashdagi asosiy shartlar, ularda bajariladigan texnologik jarayonlar, tayyorlanadigan mahsulotning assortimentiga qarab jihozlarni tanlash, tanlangan jihozlarni to'liq yoki qisman mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan bo'lish shartlari o'rganiladi.	2	2	4

5.	Qishloq xo‘jalishi mahsulotlarini qadoqlash mahsulotlarini me‘yorlash jihozlari Bu mavzuda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash jarayonida qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab me‘yorlanadi va bu me‘yorlash jarayoniga qarab turli rusumli jihozlar tanlanadi, bunda ularni tuzilishi va ishlashi yangi zamonaviy texnologiyali liniyalar, jihozlar va ularning mahsulotlarini konservalash uchun mahsulotlarni miqdorini hisoblash usullari o‘rganiladi.	2	2	4
6.	Sochiluvchan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari Qayta ishlash korxonalari tizimidagi xom ashyo va tayyor mahsulotlar turli xil ishlab chiqariladi va qadoqlanadi. Ushbu mavzuda sochiluvchan turdagi mahsulotlarni qadoqlash uchun mahsulotlar hajmiga qarab turli rusumdagi jihozlar ularni klassifikatsiyalari va ishlash prinsiplari, hisoblash usullari o‘rganiladi	2	2	4
7.	Suyuq mahsulotlarni qadoqlash jihozlari Qishloq xo‘jaligida saqlanadigan va tayyorlanadigan mahsulotlarning aksariyat qismi suyuq ko‘rinishda bo‘ladi. Bu mahsulotlar qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab turli xil idishlarda qadoqlash jihozlarining tuzilishi ishlash prinsipi ularni sonini, ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari o‘rganildi	2	2	4
8.	Qadoqlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini markiroqkalash jihozlari Qayta ishlash korxonalarida tayyorlanadigan mahsulotlar turli xildagi idishlarda qadoqlanib tayyor mahsulotlar saqlanadigan omborlarda uzatishdan oldingi jarayonlar bajariladigan jihozlarning turlari ularni ishlash prinsiplari, mahsulotlar miqdori va jihozlarning ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari o‘rganiladi	2	2	4
9.	Konserva mahsulotlarini qadoqlash texnologiyasi Qishloq xo‘jaligida saqlanadigan va tayyorlanadigan mahsulotlarning ya‘ni konserva mahsulotlari bo‘ladi. Bu mahsulotlar qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab turli xil idishlarda qadoqlash jihozlarining tuzilishi ishlash prinsipi ularni sonini, ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari o‘rganiladi	2	2	4
10.	Quyruq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari rusumlarini prinsipi va ishlab chiqish quvvatini hisoblash usullari	2	2	4

	Qishloq xo'jaligida saqlanadigan va tayyorlanadigan mahsulotlarning aksariyat qismi quyuq ko'rinishda bo'ladi. Bu mahsulotlar qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab turli xil idishlarda qadoqlash jihozlarining tuzilishi ishlash prinsipi ularni sonini, ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari o'rganiladi.			
11.	Shisha idishlarning olinishi va ularning tarkibi Qishloq xo'jaligida shisha idishlarning ishlab chiqarishda turli xil materiallardan tayyorlanadi, qadoqlanadi mahsulotlar turlariga qarab turli xil hajmdagi idishlar tayyorlanadi. Bu materiallar mahsulotlarga turlicha ta'siri va ularni me'yorlash hisoblashni o'rganish.	2	2	2
12.	Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillarini o'rganish Qayta ishlash korxonalarida qadoqlab tayyorlanadigan mahsulotlar turli xildagi idishlarda qadoqlanib tayyor mahsulotlar saqlanadigan omborlarda uzatishdan oldingi jarayonlar bajariladigan jihozlarning turlari ularni ishlash prinsiplari, mahsulotlar miqdori va jihozlarning asoslash tamoyillarini o'rganiladi.	2	2	2
JAMI		24	24	42

ASOSIY QISM

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

1-ma'ruza. Kirish. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash haqida umumiy ma'lumotlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallari va jihozlarining tarixi va bugungi kundagi ahamiyati, shu sohaga tegishli davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan so'nggi qonun va yangiliklar, loyihalashtirish institutining tuzilishi va faoliyatini o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim*.

Adabiyotlar: A2; A3; Q13;

2-ma'ruza. Qishloq materiallarining turlari va ularning tuzilishi

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarining turlari ularni markirovkalash tuzilishi, qadiqlangan mahsulotlarning saqlanish muddatiga, sifatiga, konsistensiyasiga qarab materiallarni tanlash va qo'llash tartibi va talablari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *o'z-o'zini nazorat*.

Adabiyotlar: A2; Q12;

3-ma'ruza Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarining saqlanadigan mahsulotlar sifatiga ta'sirini va bartaraf etish usullarini o'rganish

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallari ishlab chiqarishda turli xil

materiallardan tayyorlanadigan, qadoqlanadigan mahsulotlar turiga qarab turli xil idishlarda qadoqlanadi bu materiallar mahsulotlarga turlicha ta'siri va ularni me'yorlash hisoblashni o'rganish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *namoyish etish*.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *o'z-o'zini nazorat*.

Adabiyotlar: A1; A2; Q13;

4-ma'ruza. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlarining turlari

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash jihozlarini tanlashdagi asosiy shartlar, ularda bajariladigan texnologik jarayonlar, tayyorlanadigan mahsulotning assortimentiga qarab jihozlarni tanlash, tanlangan jihozlarni to'liq yoki qisman mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan bo'lish shartlari o'rganiladi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim*.

Adabiyotlar: A1; A2; Q13;

5-ma'ruza. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash mahsulotlarini me'yorlash jihozlari

Bu mavzuda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jarayonida qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab me'yorlanadi va bu me'yorlash jarayoniga qarab turli rusumli jihozlar tanlanadi, bunda ularni tuzilishi va ishlashi yangi zamonaviy texnologiyali liniyalar, jihozlar va ularning mahsulotlarini konservalash uchun mahsulotlarni miqdorini hisoblash usullari o'rganiladi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *blits-so'rov*.

Adabiyotlar: A1; A2; Q12;

6-ma'ruza. Sochiluvchan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari

Qayta ishlash korxonalari tizimidagi xom ashyo va tayyor mahsulotlar turli xil ishlab chiqariladi va qadoqlanadi. Ushbu mavzuda sochiluvchan turdagi mahsulotlarni qadoqlash uchun mahsulotlar hajmiga qarab turli rusumdagi jihozlar ularni klassifikatsiyalari va ishlash prinsiplari, hisoblash usullari o'rganiladi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *blits-so'rov*.

Adabiyotlar: A1; A2; Q12;

7-ma'ruza. Suyuq mahsulotlarni qadoqlash jihozlari

Qishloq xo'jaligida saqlanadigan va tayyorlanadigan mahsulotlarning aksariyat qismi suyuq ko'rinishda bo'ladi. Bu mahsulotlar qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab turli xil idishlarda qadoqlash jihozlarining tuzilishi ishlash prinsipi ularni sonini, ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari o'rganildi Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *o'z-o'zini nazorat*.

Adabiyotlar: A1; A2; Q12;

8-ma'ruza. Qadoqlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markiroqkalash jihozlari

Qayta ishlash korxonalarida tayyorlanadigan mahsulotlar turli xildagi idishlarda qadoqlanib tayyor mahsulotlar saqlanadigan omborlarda uzatishdan oldingi jarayonlar bajariladigan jihozlarning turlari ularni ishlash prinsiplari, mahsulotlar miqdori va jihozlarning ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari o'rganiladi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *munozara*.

Adabiyotlar: A2; A3; Q12;

9-ma'ruza. Konserva mahsulotlarini qadoqlash texnologiyasi

Qishloq xo'jaligida saqlanadigan va tayyorlanadigan mahsulotlarning ya'ni konserva mahsulotlari bo'ladi. Bu mahsulotlar qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab turli xil idishlarda qadoqlash jihozlarining tuzilishi ishlash prinsipi ularni soninni, ishlab chiqarish quvvatini hioblash usullari o'rganiladi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv. namoyish etish.*

Adabiyotlar: A1; A2; Q11

10-ma'ruza. Quyuq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari rusumlarini prinsipi va ishlab chiqish quvvatini hisoblash usullari

Qishloq xo'jaligida saqlanadigan va tayyorlanadigan mahsulotlarning aksariyat qismi quyuq ko'rinishda bo'ladi. Bu mahsulotlar qadoqlanadigan idishlar hajmiga qarab turli xil idishlarda qadoqlash jihozlarining tuzilishi ishlash prinsipi ularni sonini, ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari o'rganiladi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv. namoyish etish.*

Adabiyotlar: A1; A2; Q11

11-ma'ruza. Shisha idishlarning olinishi va ularning tarkibi

Qishloq xo'jaligida shisha idishlarning ishlab chiqarishda turli xil materiallardan tayyorlanadi, qadoqlanadi mahsulotlar turlariga qarab turli xil hajmdagi idishlar tayyorlanadi. Bu materiallar mahsulotlarga turlicha ta'siri va ularni me'yorlash hisoblashni o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv. namoyish etish.*

Adabiyotlar: A1; A2; Q11

12-ma'ruza. Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillarini o'rganish

Qayta ishlash korxonalarida qadoqlab tayyorlanadigan mahsulotlar turili xildagi idishlarda qadoqlanib tayyor mahsulotlar saqlanadigan omborlarda uzatishdan oldingi jarayonlar bajariladigan jihozlarning turlari ularni ishlash prinsiplari, mahsulotlar miqdori va jihozlarning asoslash tamoyillarini o'rganiladi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv. namoyish etish.*

Adabiyotlar: A1; A2; Q11

T.r	Ma'ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
8-semestr		
1	Kirish. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash haqida umumiy ma'lumotlar	2
2	Qishloq materiallarining turlari va ularning tuzilishi	2
3	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarining saqlanadigan	2

	mahsulotlar sifatiga ta'sirini va bartaraf etish usullarini o'rganish	
4	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlarning turlari	2
5	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash mahsulotlarini me'yorlash jihozlari	2
6	Sochiluvchan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari	2
7	Suyuq mahsulotlarni qadoqlash jihozlari	2
8	Qadoqlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markiroqkalash jihozlari	2
9	Konserva mahsulotlarini qadoqlash texnologiyasi	2
10	Quyuq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari rusumlarini prinsipi va ishlab chiqish quvvatini hisoblash usullari	2
11	Quyuq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari rusumlarini prinsipi va ishlab chiqish quvvatini hisoblash usullari	2
12	Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillarini o'rganish	2
	Jami:	24 soat

Ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akademik guruhlar oqimi uchun o'tiladi

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1. Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillarini o'rganish

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, bahs-munozara, klaster, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, 3, Q-4, 7, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16

2. Qadoqlash materiallarining turlari va ularning tuzilishi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, nima uchun, klaster, aqliy hujum, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, 3, Q-4, 7, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16

3. Qadoqlash materiallari va turlari va ularning mahsulot sifatiga ta'siri anqlash usullarini o'rganish

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, BBB, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, rolli o'yinlari, nima uchun, aqliy hujum, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, 3, Q-4, 5, 7, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarini qadoqlash materiallarini miqdorini hisoblash usullarini o'rganish

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, BBB, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, rolli o'yinlari, nima uchun, aqliy hujum, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, 3, Q-4, 5, 7, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16

5. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yopish jihozlari tuzilishi va ichki organlarini o'rganish

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, nima uchun, BBB, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, aqliy hujum, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, 3, Q-4, 5, 7, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16

6. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash, mahsulotlarni meyorlash jihozlari ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullarini o'rganish

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, BBB, klaster, insert jadvali, nima uchun, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, aqliy hujum, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, Q-10, 11, 12, 13, 14

7. Quyuq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari rusumlarini ishlash prinsipi va ishlab chiqish quvvatini hisoblash usullari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, Q-10, 11, 12, 13, 14

8. Suyuq mahsulotlarni qadoqlash jihozlari tanlash usullari va sonini hisoblash

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, Q-10, 11, 12, 13, 14

9. Qadoqlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini markirovkalash jihozlari tanlash, ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, Q-10, 11, 12, 13, 14

10. Yuvish apparatlarini sinflanishi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, Q-10, 11, 12, 13, 14

11. Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, Q-10, 11, 12, 13, 14

12. Qadoqlash materiallarini tuzilishi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, insert jadvali, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A-1, 2, Q-10, 11, 12, 13, 14

T.r	Amaliy mashg'ulotlari mavzulari	Dars soatlari hajmi
8-semestr		
1.	Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillarini o'rganish	2
2.	Qadoqlash materiallarining turlari va ularning tuzilishi	2
3.	Qadoqlash materiallari va turlari va ularning mahsuot sifatiga ta'siri anqlash usullarini o'rganish	2
4.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash materiallarini qadoqlash materiallarini miqdorini hisoblash usullarini o'rganish	2
5.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yopish jihozlari tuzilishi va ichki organlarini o'rganish	2
6.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash, mahsulotlarni meyorlash jihozlari ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullarini o'rganish	2
7.	Quyuq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash jihozlari rusumlarini ishlash prinsipi va ishlab chiqish quvvatini hisoblash usullari	2

8.	Suyuq mahsulotlarni qadoqlash jihozlari tanlash usullari va sonini hisoblash	2
9.	Qadoqlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini markirovkalash jihozlari tanlash, ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari	2
10.	Yuvish apparatlarini sinflanishi	2
11.	Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillari	2
12.	Qadoqlash materiallarini tuzilishi	2

Jami 24 soat

Amaliy mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

MUSTAQIL TA'LIM TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta'limning maqsadi - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash logistikasi” bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan. Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash logistikasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 30 ta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

T.r	Mustaqil ta'lim mavzular	Dars soatlari hajmi
1.	Yuvish apparatlarining sinflanishi	2
2.	Qadoqlash materiallarining sinflanishi	2

3.	Shisha idishlarning olinishi va ularning tarkibi	2
4.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash materiallarini yuvuvchi eritmalarini tayyorlash tartibi	2
5.	Suyuq mahsulotlarini qadoqlash	2
6.	Sochiluvchan mahsulotlarini qadoqlash texnologiyasi	1
7.	Meva sabzavotlarni qadoqlash materiallari	1
8.	Poliz mahsulotlarini qadoqlash texnologiyasi	1
9.	Konserva mahsulotlarini qadoqlash materiallari	1
10.	Qurilgan mahsulotlarni qadoqlash texnologiyasi	2
11.	Qadoqlashning zamonaviy usullari	2
12.	Qadoqlash va yoriqlash uyg'unli	2
13.	Asseptik idishlarga qadoqlash texnologiyasi	1
14.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yopish jihozlari tuzilishi va ishchi organlarini o'rganish	1
15.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini markirovkalash jihozlari tanlash, ishlab chiqarish, quvvatini hisoblash usullari	2
16.	YUVish apparatlarini sinflanishi	2
17.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash, materiallarini yuvuvchi eritmalarini tayyorlash tartibi	2
18.	Poliz mahsulotlarini qadoqlash texnologiyasi	1
19.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yopish jihozlari	1
20.	Asseptik idishlarga qadoqlash	1
21.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qadoqlash, mahsulotlarini me'yorlash jihozlari ishlab chiqarish quvvatini hisoblash	2
22.	Asseptik idishlarga qadoqlash texnologiyasi	1
23.	Qadoqlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markirovkalash	1
24.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yopish jihozlari tuzilishi	1
25.	Qadoqlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markirovkalash jihozlari tanlash	1
26.	Qadoqlash materiallarining turlari	1
27.	Konserva mahsulotlarini qadoqlash texnologiyasi	1
28.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yopish jihozlari	1
29.	Qadoqlash jarayonlarini asoslash tamoyillari	1
30.	Qadoqlash jihozlari tanlash	1

Jami 42 soat

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, slaydlar, testlar, krossvordlar, plakatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi.

KURS ISHI MAVZULARI

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash” fanidan kurs ishi majmuasi fanining barcha mavzularini qamrab olgan va fanning namunaviy o'quv rejasida quyidagi 30 ta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

T.r	<i>Kurs ishi mavzulari</i>
1	Ildizmevali sabzavotlarni saqlashda uyum va handaklarning sigʻimiga mos holda ularni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
2	Kartoshkani uyum va handaklarning sigʻimiga mos holda ularni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarituri va miqdorini hisoblash
3	Karamni uyum va handaklarning sigʻimiga mos holda ularni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va midorini hisoblash
4	Tabiiy shamollatiladigan omborda sigʻimiga mos holda 100 tonna donni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
5	Tabiiy shamollatiladigan omborda sigʻimiga mos holda 400 tonna sabzini joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
6	Tabiiy shamollatiladigan omborda sigʻimiga mos holda 300 tonna piyozni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
7	Tabiiy shamollatiladigan omborda sigʻimiga mos holda 250 tonna kartoshkani joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
8	Tabiiy shamollatiladigan omborda sigʻimiga mos holda 75 tonna olmani joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
9	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 30 tonna pomidorni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
10	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 38 tonna uzumni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
11	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 50 tonna karamni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
12	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 40 tonna nokni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
13	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 12 tonna behini joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
14	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 320 tonna anorni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
15	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 30 tonna qovoqni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
16	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 20 tonna qovunni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
17	Sovutkichli omborda sigʻimiga mos holda 14 tonna tarvuzni joylashtirish uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallari turi va miqdorini hisoblash
18	Quritilgan 20 tonna piyoz mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
19	Quritilgan 18 tonna pomidor mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
20	Quritilgan 12 tonna baqlajon mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash

21	Qurilgan 14 tonna chuchuk qalampir mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
22	Qurilgan 5 tonna qovun mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
23	Qurilgan 8 tonna olma mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
24	Qurilgan 15 tonna shaftoli mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
25	Qurilgan 14 tonna turshak mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
26	Qurilgan 25 tonna kishmish mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
27	Qurilgan 16 tonna anjir mahsulotlarini qadoqlash uchun talab qilinadigan qadoqlash materiallarini turi va miqdorini hisoblash
28	Qand bilan konservalangan 50 tonna olma mevasidan tayyorlangan povidloni shartli bankalar talabidan kelib chiqib, qadoqlashda talab etiladigan materiallar miqdorini hisoblash
29	Qand bilan konservalangan 17 tonna o'rik mevasidan tayyorlangan murabboni shartli bankalar talabidan kelib chiqib, qadoqlashda talab etiladigan materiallar miqdorini hisoblash
30	Qand bilan konservalangan 17 tonna rezavor mevalardan tayyorlangan jemni shartli bankalar talabidan kelib chiqib, qadoqlashda talab etiladigan materiallar miqdorini hisoblash
31	10 tonna sutni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar turidan kelib chiqib, qadoqlash materiallari miqdorini hisoblash

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

**“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash”
Fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish.**

Baholash tartibi va mezonlari

Talabalarining fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi

T/r	Nazorat shakli	Soni	Nazoratlar bo'yicha baholash
Oraliq nazorat			
1.	Yozma ish, og'zaki so'rov yoki test shaklida	1	2, 3, 4, 5
Yakuniy nazorat			
1.	Yozma ish yoki og'zaki so'rov	1	2, 3, 4, 5

T/r	Baholash mezonlari	Baho
1.	Xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	5 (a'lo) baho
2.	Mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	4 (yaxshi) baho
3.	Mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	3 (qoniqarli) baho
4.	Dasturni o'zlashtirmaganlik; fanni mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrli olmaslik.	2 (qoniqarsiz) baho

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash” fani bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari, nazorat turi, shakli, soni hamda oraliq nazoratlarining o'tkazilish vaqti haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalar bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabalar nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir, ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YAN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch so'z va iboralarga asoslangan yozma, og'zaki, test va h.k. shakllarda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabalar bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasida yakuniy nazorat turlarini o'tkazilishi **ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi** tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli yakuniy nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning baho mezonlari asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi 5 baholik tizim orqali ifodalanadi.

Talaba mustaqil xulosa va qarorlar qabul qila olsa, ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda -5 (a'lo) baho bilan baholanadi.

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 4 (yaxshi) baho baholanadi.

Talaba olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho baholanadi.

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

- Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baxolash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

- Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

ON va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan baholash nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba baholash natijasidan norozi bulgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaktdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega. Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatiladi.

Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga etkazilishini ta'minlaydi.

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. (Yakuniy nazoratni yozma, og'zaki, test va boshqa usullarda olish mumkin).

Asosiy adabiyotlar

1. Bix L., Rifon N., Loskhart H., de la Fuente, Javiyer (2003). "The Paskaging Matrix" (PDF).1536266. IDS Paskaging. Retriyeved, 2009-12-11.
2. Dodayev Q.O., Mamatov I.M. Oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash korxonalarining loyihalash asoslari va texnologik hisoblari (o'quv qo'llanma). – T.: Iqtisod-moliya, 2006.
3. Xaitov R. va boshqalar. Donni qayta ishlash korxonalarining texnologik jihozlari. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. 2005.
4. SHirokov E.P., Polegaev V.I. Xranenie i pererabotka produksii rastenievodstva s osnovami standartizatsii. – M.: "Kolos", 2000.
5. Zaychik SH.R. Oborudovanie predpriyatiy vinodelcheskogo proizvodstva. – M.: VO "Agpromizdat", 2008.
6. Shaumarov X.B., Islomov S.Y. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. Toshkent. 2011 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil, 47 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil, 485 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy artib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil, 103 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plamlari, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
11. SHeglov N.G. Texnologiya konservirovaniya plodov i ovoshey (uchebno-prakticheskoe posobie). – M.: "Poleotin", 2002.
12. Dragilov A.I., Drozdov V.S. Texnologicheskie oborudovnie predpriyatiy pererabativayushix otrasley APK. – M.: "Kolos", 2001.
13. Shaw, Randy. "Food Paskaging: 9 Types and Differences Explained". Assemblies Unlimited. Retriyeved 19 June 2015.
14. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekistonda Oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi, Toshkent 2014 yil 6 iyun.

Internet saytlari

1. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumoti milliy bazasi.
3. [http://www/Xranenie i pererabotka polevyykh kultur](http://www/Xranenie_i_pererabotka_polevyykh_kultur)
4. [http://www/Xranenie i pererabotka selxozproduksii](http://www/Xranenie_i_pererabotka_selxozproduksii)